



**NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**




# **NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI**

*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*


*2023 - yil yanvar-sentabr*

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

yanvar-sentabr, o'sish darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so'm



## Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori dinamikasi, so'mda




**Ma'lumot uchun:** Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga 2023 - yil 1 - maydan o'zgartirish kiritildi hamda **980,0 ming so'mga** yetkazildi.

2023 - yil yanvar-sentabr oylari uchun o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini shakllantirishda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo'jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rinlarda – o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlar, mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.




## O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



## 2022 -2023 - yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori o'sish ko'rsatkichi – axborot va aloqa sohasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish darajasi **167,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, qurilish sohasi **136,1 %**, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati **130,3 %**, tashish va saqlash sohasi **126,8 %**, ta'lim sohasida **116,4 %**, sanoat sohasi **114,7 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi **111,9 %** hamda savdo sohasi **105,8 %** ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

## SANOAT SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



**8 599,3**

Tog‘-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash



**8 453,6**

Ishlab chiqarish  
sanoati



**2 616,2**

Suv bilan ta‘minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig‘ish  
va utilizatsiya qilish




**6 109,2**


Elektr, gaz, bug‘  
bilan ta‘minlash va  
havoni konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i (**8 599,3 ming so‘m**), ishlab chiqarish sanoati (**8 453,6 ming so‘m**) hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (**6 109,2 ming so‘m**) da kuzatildi.

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*




## Hududlar kesimida




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Uchquduq tumani (**10400,2 ming so'm**), Zarafshon shahri (**9454,5 ming so'm**), Konimex tumani (**8272,3 ming so'm**), Navoiy shahri (**7788,9 ming so'm**) hamda Karmana tumanida (**5210,7 ming so'm**) kuzatildi.

 *ming so'm*     *o'sish sur'ati*

## QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




### Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahri (**8613,4 ming so'm**), Navoiy shahri (**3618,0 ming so'm**) va Nurota tumani (**3134,4 ming so'm**)da qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




ming so'm o'sish sur'ati


## SAVDO SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Karmana tumani (**5414,8 ming so'm**), Navoiy shahri (**2761,3 ming so'm**), Konimex tumani (**1684,4 ming so'm**) va Navbahor tumani (**1608,3 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Navoiy shahri (**111,1 %**), Konimex tumani (**106,0 %**) va Karmana tumani (**103,4 %**)da qayd etildi.




## TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Karmana tumani (5574,4 ming so'm), Navoiy (2794,3 ming so'm), Zarafshon (1274,0 ming so'm) shaharlari va Qiziltepa tumani (1089,5 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Zarafshon shahri (152,0 %), Karmana tumani (120,4 %) va Navoiy shahri (112,2 %) da qayd etildi.


## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Navoiy shahri (**6802,3 ming so'm**), Tomdi tumani (**2223,0 ming so'm**) hamda Konimex tumani (**1455,8 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Navoiy shahri (**166,4 %**) va Tomdi tumani (**116,9 %**)da qayd etildi.


## BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Karmana tumani (13033,2 ming so'm), Navoiy shahri (11991,6 ming so'm), Konimex tumani (10589,4 ming so'm) hamda Zarafshon shahri (10342,5 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Xatirchi tumani (177,8 %), Navbahor tumani (139,6 %), Nurota tumani (137,5 %) hamda Navoiy shahri (131,9 %)da qayd etildi.


## TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Uchquduq tumani (**4093,6 ming so'm**), Zarafshon shahri (**4031,6 ming so'm**), Navoiy shahri (**3878,3 ming so'm**) hamda Tomdi tumani (**3030,3 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Konimex tumani (**124,1 %**), Tomdi tumani (**121,3 %**), Karmana tumani (**120,2 %**), Navoiy shahri (**117,7 %**) hamda Xatirchi tumani (**117,2 %**)da qayd etildi.

## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




### Hududlar kesimida



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining faoliyati turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahri (**3907,4 ming so'm**), Uchquduq tumani (**3619,8 ming so'm**) hamda G'ozg'on shahri (**3402,1 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati G'ozg'on shahri (**187,8 %**), Zarafshon shahri (**120,6 %**), Konimex tumani (**120,3 %**) hamda Navbahor tumani (**119,4 %**)da qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



## DEMOGRAFIYA VA MEHNAT STATISTIKASI BO'LIMI

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.



Tel.: 79 223-07-41